



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA GEOGRAFIK TERMINLARNING PREFIKSAL USULDA YASALISHI: QIYOSIY TAHLIL

Xabibulloyeva Gulchexra Komiljonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi geografik terminlarning prefiksali usulda yasalishi chog‘ishtirma solishtirilgan. Tadqiqot davomida ingliz tilidagi *sub-*, *trans-*, *semi-* va boshqa prefikslar hamda o‘zbek tilidagi *be-*, *ser-*, *no-* va boshqa bir qator prefiksoidlar orqali yasalgan terminlarning semantik va shakily xususiyatlari tahlil qilingan. Ikki tilda mavjud terminologik tizimning o‘xshash va farqli jihatlari misollar orqali yanada oydinlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: geografik terminologiya, prefiks, derivatsiya, chog‘ishtirma tilshunoslik, morfologik usul, semantika.

ПРЕФИКСАЦИЯ ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Хабибуллоева Гульчехра Комилжонова

Деновский институт предпринимательства и педагогики, преподаватель

Аннотация

В данной статье сравнивается префиксальное образование географических терминов в английском и узбекском языках. В ходе исследования анализируются семантические и формальные особенности терминов, образованных с использованием английских префиксов *sub-*, *trans-*, *semi-* и других, а также узбекских префиксов *be-*, *ser-*, *no-* и ряда других. Сходства и различия терминологических систем в двух языках дополнительно уточнены на примерах.

Ключевые слова: географическая терминология, префикс, словообразование, сравнительная лингвистика, морфологический метод, семантика.

PREFIXATION OF GEOGRAPHICAL TERMS IN ENGLISH AND UZBEK: A COMPARATIVE ANALYSIS

Xabibulloyeva Gulchexra Komiljonovna

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Lecturer

Abstract

This article compares the prefixal formation of geographical terms in English and Uzbek. During the study, the semantic and formal features of terms formed using the English prefixes *sub-*, *trans-*, *semi-* and others, and the Uzbek prefixes *be-*, *ser-*, *no-* and a number of others, were analyzed. The similarities and differences of the terminological systems in the two languages are further clarified through examples.

Keywords: geographical terminology, prefix, derivation, comparative linguistics, morphological method, semantics.

Tilshunoslikda so‘z yasash tilni boyitish manbalaridan biri sifatida muhim rol o‘ynaydi. Har bir tilda so‘z yasash usullari yangi tushunchalarni ifodalash, mavjud ma’nolarni kengaytirish va terminologik tizimlarni rivojlantirish uchun samarali qo‘llaniladi. Xususan, fanning rivojlanishi, geografik bilimlarning kengayishi va xalqaro munosabatlarning evolyutsiyasi geografik atamalarning shakllanishi va takomillashishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun geografik atamalarning shakllanishini o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda dolzarb masala hisoblanadi.

Geografik atamalar tabiiy hodisalar, yer shakllari, hududiy xususiyatlar, iqlim jarayonlari va geografik makon bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalaydi. Bunday atamalarning shakllanishida turli xil so‘z yasash usullari, jumladan, affiksatsiya, birikma, qisqartma va semantik usullar muhim rol o‘ynaydi. Ular orasida prefiks usuli ba’zi tillarda atama yasashning eng faol vositalaridan biridir. Xususan, ingliz tilida ko‘plab geografik atamalar *geo-*, *inter-*, *trans-*, *sub-*, *super-* va *anti-* kabi prefikslar yordamida shakllanadi. O‘zbek tilida prefiksatsiya hodisasi ingliz tiliga qaraganda kamroq uchraydigan bo‘lsa-da, u ma’lum darajada xalqaro atamalar tarkibida va o‘zlashtirilgan birliklar orqali qo‘llaniladi [2].

Ingliz va o‘zbek tillaridagi geografik atamalarning prefiksatsiyasini qiyosiy o‘rganish bizga ikki

tilning soʻz yasash tizimlaridagi oʻxshashliklar va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Bu nafaqat nazariy tilshunoslik, balki tarjimashunoslik, terminologiya va qiyosiy tilshunoslik uchun ham katta ilmiy ahamiyatga ega. Bundan tashqari, geografik atamalarining strukturaviy va semantik xususiyatlarini tahlil qilish atamalarining semantik aniqlik darajasini va funksional qoʻllanilishini aniqlashda muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqolada ingliz va oʻzbek tillaridagi geografik atamalar prefiksatsiyasining qiyosiy tahlili keltirilgan hamda prefikslarning semantik funksiyalari va ularning atama yasashdagi roli taʼkidlangan. Bundan tashqari, ikki tilning terminologik tizimlarida prefiksatsiya jarayonining oʻziga xos jihatlari misollar yordamida tahlil qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Soʻnggi vaqtlarda geografiya fanining keskin rivojlanishi va xalqaro hamkorlikning kengayishi oqibatida ushbu soha terminologiyasini tartibga solish va qiyosiy oʻrganishni taqozo etmoqda. Geografik terminlar tilda nafaqat obyektning nomini, balki uning joylashuvi, xususiyati va holatini ham ifodalashi mumkin. Bizga maʼlumki, prefiksatsiya usuli orqali yasama soʻz yasash morfologik usulning eng faol usullaridan biridir. Ingliz va oʻzbek tillari turli til oilalariga mansub boʻlsa-da, ularning terminologik qatlamida oʻxshash yasama modellarini kuzatish mumkin. Shunday usullardan biri prefiksatsiya usulidir. Prefiksatsiya usuli termin yasashning eng unumli usullaridan biri boʻlib, u terminning maʼnosini aniqlashtirish va ixchamlashtirishga xizmat qiladi. Bu usulda affiks soʻzning old tomonidan oʻzakka birikadi va yangi soʻz hosil qiladi [3]. Ushbu maqolani yozishda tadqiqot obyekti sifatida *Oxford Geography Dictionary*, *Oxford Learner's Dictionary*, *Cambridge Dictionary*, *Collins Dictionary* va oʻzbek tilining geografik atamalar lugʻatlari, *Oʻzbek tilining izohli lugʻati*, *Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi* hamda boshqa manbalar tanlab olindi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada chogʻishtirma-tipologik tahlil metodi asosiy oʻrin tutadi. Ikki tildagi prefikslar salmogʻi suffikslardek ancha faol boʻlmasa-da, ularning ishlatilishi oʻzbek tilidan koʻra ingliz tilida ancha sermahsuldir. Sababi, oʻzbek tilidagi prefikslarning asosiy qismi fors-tojik tillaridan kirib kelgan old qoʻshimchalar sifatida oʻzlashtirilgan. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tillarda yozilgan geografik lugʻatlardan olingan terminlarni tahlil qilish uchun komponentli tahlil va tillararo semantik muvofiqlikni aniqlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilida geografik terminlarni yasashda asosan lotin va grek tillaridan oʻzlashtirilgan affikslar (old qoʻshimchalar) yetakchilik qiladi.

Subtopics – *the regions of the earth which are near the tropics* / Yer yuzasidagi tropik iqlim mintaqalariga yaqin joylashgan hududlar. Bu termin tarkibida **sub-** qoʻshimchasi prefiks sanaladi (**sub-** “yaqinida”, “ostida” degan maʼnolarni beradi) va u joy nomini bildiradi, gapda ot soʻz turkumi vazifasida keladi, **tropics** esa mustaqil soʻz hisoblanadi.

Sub- (osti, yaqin, quyi): **Subtropical** (subtropik) – tropik mintaqaga yaqin hudud. Bu prefiks iqlimiy zonalarini belgilashda juda faol [1].

Transcontinental – *crossing a continent* / qitʼa orqali, materikni kesib oʻtadigan. Bu termin tarkibida nafaqat **trans-** prefiksi, balki **-al** suffiksi ham mavjud (**-al** ingliz tilida sifat yasovchi qoʻshimcha hisoblanadi), **continent** esa mustaqil soʻz boʻlib kelgan.

Trans- (orti, osha, orqali): **Transcontinental** (transkontinental) – qitʼalararo. Bu prefiks masofaviy kenglikni anglatadi.

Semi-arid – *(of a region or climate) dry but having slightly more rain than an arid region or climate* / quruq hudud, ammo qurgʻoqchil hududga qaraganda yogʻingarchilik ozroq boʻlgan hudud yoki iqlim. **Semi-** soʻzi bu yerda prefiks vazifasida kelmoqda.

Semi- (yarim): **Semi-arid** (yarim qurgʻoqchil) – yogʻingarchilik kam, lekin choʻl boʻlmagan hudud [4].

Oʻzbek tili agglutinativ til boʻlgani uchun sof prefikslar tizimi rivojlanmagan. Bunday prefikslar oʻrnida maʼno koʻpincha kelishik va qoʻshimchalar orqali ifodalanadi. Biroq, geografik tushunchalarni ifodalashda fors-tojik tillaridan oʻzlashgan prefiksoidlar (**be-**, **ser-**, **no-**) faol qoʻllaniladi.

Bepoyon – oxiri yoʻq, nihoyatda keng. *Bepoyon sahro*. Bu yerda **be-** “...siz, yoʻq” maʼnosini beradi. **Bepoyon** (keng, cheksiz tekisliklar uchun) hududning chegarasizligini ifodalovchi terminologik sifat hisoblanadi [4].

Sersuv – suvi koʻp, suvi moʻl. **Ser-** (serob, koʻp): **Sersuv** (suvga boy daryo yoki yerlar). Bu prefiksoid geografik obyektning resurs bilan taʼminlanganlik darajasini koʻrsatadi.

Notekis – yuzasi tekis emas, past-baland, gʻadir-budir, oʻydim-chuqur. **No-** (inkor): **Notekis** (relyef shakllariga nisbatan). Bu birlik relyefning morfologik holatini tavsiflaydi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, ingliz tilidagi prefikslar koʻproq ilmiy-terminologik xarakterga ega

va xalqaro miqyosda tushunarli terminlardir. Masalan, **subtropical** termini o‘zbek tiliga ham **subtropik** shaklida to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashgan. Biroq, o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari (**sernam**, **bepoyon**) ko‘proq tasviriy-morfologik xarakterga ega [5].

O‘zbek tilida **ser-** prefiksoidi geografik obyektlarning gidrologik xususiyatlarini ifodalashda juda mahsuldor hisoblanadi. Ingliz tilida esa bu ma‘no ko‘pincha prefiks emas, balki sifat yasovchi suffiksalar (**-y**, **-ful**) yoki birikmalar orqali ifodalanadi. Masalan: **sersuv daryo** – **water-rich river** [6].

Xulosa. Ingliz tilida geografik prefiksalar asosan yunon-lotin qatlamiga mansub bo‘lib, terminologik tizimning aniqligini ta‘minlaydi. O‘zbek tilida prefiksalar usul ingliz tiliga qaraganda kamroq mahsuldor bo‘lsa-da, **be-**, **ser-**, **no-** prefiksoidlari relyef va iqlim tavsifida muhim lingvistik birliklar hisoblanadi. Inglizcha **sub-**, **trans-**, **semi-** prefikslari o‘zbek tiliga ikki xil usulda o‘zlashmoqda: to‘g‘ridan-to‘g‘ri terminologik o‘zlashma (**subtropik**) yoki kalka qilish (**yarimcho‘l**). Chog‘ishtirma tadqiqot natijalari ikki til orasidagi geografik lug‘atlarni mukammallashtirishda xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Dictionary of Geography. — Oxford: Oxford University Press, 2015.
2. G‘ulomov P. Geografiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. — Toshkent, 1994.
3. Gadoyeva M.I. Ingliz va o‘zbek tillarida somatizmlarning semantik-pragmatik tadqiqi (folklorning kichik janrlari misolida): filol. fanlari falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. — Toshkent, 2020.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. — 610 b.
5. Izohli lug‘at: “notekis”. — URL: Izoh.uz <https://izoh.uz/word/notekis>
6. Oxford Learner’s Dictionaries: “subtropical”. — URL: https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/us/definition/english/subtropical?q=subtropical#google_vignette
7. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/transcontinental>